

UDK 633.4.41/.44: 632.4: 632.934.1

SABZINING ALTERNARIOZ KASALLIGIGA QARSHI SRILANK M.EM.K. PREPARATINING BIOLOGIK SAMARADORLIGI

Akbarov Mirjamol Mirodilovich tayanch doktorant, Turopov Nodir Xakimjon o'g'li
kichik ilmiy hodim, O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Annotation: *This article presents the effectiveness of Srilank fungicide against Alternaria disease of carrot. When Srilank drug was applied at the rates of 0.5 l/ha and 0.7 l/ha, it was 88.9% to 91.0%, respectively, against carrot Alternaria disease.*

Key words: *fungus, pathogen, carrot, disease, fungicide, Alternaria radicina.*

Kirish. O'zbekiston meva-sabzavotlarining tashqi bozorda raqobatbardosh bo'lishi va shu bilan birga sifatli mahsulotlarning ichki bozorimizni ham to'liq ta'minlashiga qishloq xo'jaligini isloh qilish, bozor munosabatlarini joriy qilish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi sub'ektlar o'rasida huquqiy asosni mustaxkamlash, sohada resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xo'jaligida ilmiy asoslangan tavsiyalar asosida kasalliklarga qarshi kurashish orqali erishish mumkin. BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) hamda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga qaraganda, hozirgi vaqtda dunyoda 840 milliondan ortiq kishi to'yib ovqatlanish imkoniyatiga ega emas. Bundan tashqari er shari aholisining 30% dan ziyodi to'laqonli ovqatlanmaslik muammosini boshidan kechirmoqda va bularning barchasi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash naqadar dolzarb masala ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5853-son Farmonidagi bandlarda sabzavotchilikni rivojlantirish va ularni himoya qilish masalalari alohida belgilab qo'yilgan [1].

O'zbekiston Respublikasi davlat statistikasi komitetining bergan ma'lumotlariga ko'ra 2021-2022 yili respublikada 10 mln. tonna sabzavot mahsulotlari etishtirilgan bo'lsa, shundan eksport qilinadiganlari piyoz, sabzi va ertangi karam hisoblanadi.

Sabzi. Mazkur ildizmevali sabzavot ekin turi soyabonguldoshlar oilasiga (*Umbelliferae*) mansub ikki yillik o'tsimon o'simlik. Sabzisi (ildizmevasi)da 10-12% qand, 9,2% uglevodlar, 1,1% azotli moddalar va C, B, B2, PP, E, K vitaminlari, 9,0 (20-25) mg% karotin bor. Sabzi inson oziq-ovqat ratsionida muhim o'rinda turadi. Yangiligida iste'mol qilinadi, konservalar tayyorlanadi, tibbiyotda esa sabzidan turli dori-darmonlar tayyorlanadi. Shimoliy rayonlarda va Evropa mamlakatlarida, asosan, qizil, Markaziy Osiyo mamlakatlarida sariq sabzi ekiladi.

Hozirgi kunda sabzining zamburug'lar qo'zg'atadigan o'suv davrida un-shudring, alternarioz, fomoz, rizoktonioz, saqlash davrida esa oq chirish, kulrang chirish kasalliklari katta zarar keltirmoqda [6,7]. Bu kasalliklarga qarshi o'z vaqtida himoya qilish tadbirlarini qo'llamaslik natijasida, mazkur kasalliklar tez tarqaladi va ularning keltiradigan zarari juda katta bo'ladi [7].

Sabzining alternarioz kasalligini *Alternaria radicina* M., D. et E. zamburug' turi qo'zg'atuishi aniqlandi. Zararlangan o'simlik to'qimalarida hosil bo'lgan yashil-qoramtir mog'or qatlami zamburug'ning mitseliysi, konidioforalari va konidiyalaridan iborat [6].

Birinchi yil hosili uchun zararlangan urug'lik ishlatilganda olingan nihollarning ildiz bo'g'zi qorayishi, barglar sarg'ayishi va so'liydi. Mavsum oxirida pastki barglarda to'q-qo'ng'ir dog'lar rivojlanadi, barglar quriydi. So'ngra kasallik ildizmevaning tepa qismiga o'tishi va chiritadi [5,6].

Tadqiqot o'tkazish joyi va uslubi. Toshkent viloyati Qibray tumani Istiqlol xududi Qipchoq Fotima fermer xo'jaligi 1,5 gektar sabzi ekilgan maydonda Srilank (Shrilank), m.em.k. fungitsidi sinovdan o'tkazildi.

Kimyoviy ishlovlar 300 l/ga ishchi suyuqlikning hisobida motorli qo'l purkagich yordamida amalga oshirildi.

Birinchi kimyoviy ishlov –20 iyulda kasallikning dastlabki belgilari paydo bo‘lganda, ikkinchi ishlov – 14 kundan keyin amalga oshirildi [3].

Tadqiqot natijalari. Srilank (Shrilank), m.em.k. fungitsidi sabzining alternarioz kasalligiga qarshi 0,5 l/ga va 0,7 l/ga me’yorlarda sinovdan o‘tkazildi. Birinchi kimyoviy ishlov 20 iyulda piyozda alternarioz kasalligining dastlabki belgilari paydo bo‘lganda amalga oshirildi.



1-rasm. Tadqiqot jarayonidan lavhalar

14 kundan so‘ng ikkinchi ishlov o‘tkazishdan oldin sabzini alternarioz kasalligi bilan zararlanishiga preparatlarni ta’siri o‘rganilib, hisob kitob ishlari amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari ma’lumotlariga ko‘ra, nazorat variantda kasallanish 27,7-38,0% gachani, kasallikning rivojlanishi esa 9,60-13,47% ni tashkil etgan.

Srilank (Shrilank), m.em.k. 0,5 l/ga me’yorda sabzini alternarioz kasalligiga qarshi qo‘llanilgan variantda kasallikning rivojlanishi 1,07% dan 2,00% gachani, biologik samaradorlik esa 85,1% dan 88,9% gachani, 0,7 l/ga me’yorda qo‘llanilganda yuqori natija ko‘rsatdi va bu variantda kasallikning rivojlanishi 0,87% dan 1,80% gachani, biologik samaradorlik 86,6% dan 91,0% gachani tashkil etdi.

Skoroshans em.k. andoza sifatida 0,15 l/ga miqdorida qo‘llanilganda kasallikning rivojlanishi 1,40-2,33% gachanini, biologik samaradorlik esa 82,7% dan 85,4% gachani tashkil etdi.

Хулоса. Srilank (Shrilank), m.em.k. preparati sabzini alternarioz kasalligiga qarshi 0,5 l/ga va 0,7 l/ga me’yorlarda qo‘llanilganda mos ravishda 88,9% dan 91,0 % gachani tashkil etdi.

1-jadval.

Sabzini alternarioz kasalligiga qarshi Srilank (Shrilank), m.em.k. fungitsidining biologik samaradorligi

Toshkent viloyati Qibray tumani Istiqlol xududi Qipchoq Fotima fermer xo'jaligi, 2024 y

№	Variantlar	Preparat- ning sarf me'yori, kg/ga	20.07.2024			4.08.2024		
			Kasallanish, %	Kasallik rivoji, %	Biologik samaradorlik, %	Kasallanish, %	Kasallik rivoji, %	Biologik samaradorlik, %
1.	Nazorat – dori sepilmagan	-	27,7	9,60	-	38,0	13,47	-
2.	Skoroshans em.k. (etalon)	0,15	4,7	1,40	85,4	7,3	2,33	82,7
3.	Srilank (Shrilank), m.em.k.	0,5	4,0	1,07	88,9	6,0	2,00	85,1
4.	Srilank (Shrilank), m.em.k.	0,7	3,0	0,87	91,0	5,7	1,80	86,6

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5853-son Farmoni.
2. Джафаров И.Г. Продолжительность защитного действия некоторых фунгицидов // Тез. науч-практ. конф. молодых ученых и специалистов. – Москва, 1990. –С. 19.
3. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. – М.: Колос, 1979. – С.270.
4. Котикова Г.Ш., Алексеева С.П. Методические указания по государственным испытаниям фунгицидов, антибиотиков и протравителей семян сельскохозяйственных культур. – Москва, 1985. –С. 106–108.
5. Наумов Н.А. Болезни сельскохозяйственных растений.-Москва,1952.- С.511-521.

6. Xasanov B.A., Ochilov R.O., Gulmurodov R.A. Sabzavot, kartoshka hamda poliz ekinlarining kasalliklari va ularga qarshi kurash. – Toshkent: 2009. – 65-71 s.

7. Xolmurodov E.A. Meva va sabzavotlarning saqlash davrida uchraydigan kasalliklari va ularga qarshi kurashishni ilmiy asoslash //Q.-x. f. d. dis. avtoref. – Toshkent: 2004. 54 b.

8. Хохряков М.К. и др. Определитель болезней растений.– «Колос», Ленинград, 1966. – С.476–493.

9. Хохряков М.К. Методические указания по экспериментальному изучению фитопатогенных грибов. – Л.1969., вып. II. –С. 52–55.